

ТУПРОҚШУНОСЛИК ФАНИ

МАВЗУ:


**Қурук дашт субтропик тоғ олди
тупроқлари. Бўз тупроқлар**

РЕЖА:

- *O`zbekiston tuproqlarining xilma – xilligi*
- *Tuproq turlari*
- *Buz tuproqlar*
- *Jigarrang tuproqlar*
- *Yaylovlar va sug`oriladigan yerlar.*


Ўзбекистон тупроқлари

- Кулранг – қўнғир тупроқлар
- Сахро-қумли тупроқлар
- Такирли тупроқ
- Тақирлар
- Тақир-воха тупроқлари
- Ўтлоқи тупроқ
- Ўтлоқ қайир-аллювиал тупроқлар
- Ўтлоқ воха тупроқлар
- Суғориладиган ўтлоқ тупроқлар
- Суғориладиган тақир-ўтлоқ тупроқлар
- Ботқоқ тупроқлар
- Ботқоқ-воха тупроқлар
- Шўрхоклар
- Бўз тупроқлар
- Қўнғир тупроқлар
- Қўнғир тоғ-ўрмон тупроқлари
- Оч қўнғир
- ўтлоқ-чўл
- баланд тоғ тупроқлари




Asosiy tuproq guruxlari bo'yicha

Sho'rlanishi bo'yicha



- Шўрланмаган ва ювилган
- Кучсиз шўрланган
- Ўртача шўрланган
- Кучли шўрланган
- Жуда кучли шўрланган
- Бошқа ерлар

Ўзбекистон Республикаси ер фондининг ер турлари бўйича тақсимланиши



- O`zbekiston tabiat unsurlari xususiyatlarining uning hamma qismida bir xil bo`lmasligi — relefning murakkabligi, tog` jinslarining kelib chiqishi va litologik tuzilishining hamda gidrologik sharoitining xilma-xilligi, arid tipli kontinental iqlim va o`simliklarning mavjudligi har xil tuproq turlarining vujudga kelishiga sababchi bo`lgan.
- O`zbekiston tekislik qismi bilan tog`li qismi orasida xam tabiiy unsurlarning farqi juda katta. Shu sababli tekislik (qismida tuproqning zonallik xususiyati mavjud bo`lib, cho`lga xos tuproq turlari shakllansa, aksincha tog`li qismida balandlik mintaqalanish vujudga kelgan.
- Jumhuriyatimiz tekislik (qismida ham .qoldik tog`lar, balandliklar, vodiylar, botiqlar mavjud bo`lib, ularda tuproq hosil bo`lish jarayoni bir-biridan farq qiladi. Buning ustiga yilning ko`p qismi issiq, quruq va seroftob bo`lganligidan tuproq xosil bo`lish jarayoni sust bo`ladi. Yoz qurg`oqchil, harorat yuqori bo`lganligidan mumkin bo`lgan bug`lanish yog`inga nisbatan 15—20 martagacha ortiq bo`lib, tuproq tarkibida har xil tuzlar to`planib, tuproq ko`p joyda sho`rlashgan.
- O`zbekiston hududining yer osti suvlari nisbatan chuqur joylashgan tekisliklarida so`rqo`ng`ir, tog` oldi tekisliklari va adirlarda bo`z, tog`darida jigar rang, qo`ng`ir tog`-o`rmon kabi avtomorf tuproq turlari joylashgan. Aksincha, yer osti suvlari yuza bo`lgan joylarda gidromorfli tuproqlar — o`tloq, botqoq, botqoq-o`tloq kabi tuproq turlari mavjud. Gidromorfli tuproq turlari yana joyning geomorfologik sharoitiga (daryoning;quyi qayirlarida) bog`liq holda tog` oldi tekisliklarida xam uchraydi.

- O`zbekistonda arid iqlim sharoitida vujudga kelgan sur-ko`ng`ir tusli, taqir, kumli kabi tuproqlarida chirindi miqdori nihoyatda kam bo`lib, tuproqning usti katlamida 1,0% atrofida mavjud. Bunga asosiy sabab iqlimiy sharoitlarni (yoz issiq, qurg`oqchil bo`lib, uzoq davom etishligi) noqulayligi tufayli o`simliklarning nihoyatda siyrak o`sishidir.
- O`zbekiston hududida yana sug`oriladigan joylarda madaniy sug`oriladigan tuproqlari turi vujudga kelgan. Chunki kishilar ming yillab tuproqni sug`orib, xar xil o`g`itlar solib, ishlov berib tabiiy xususiyatlarini o`zgartirib yuborgan. Bunday tuproq turlariga voha o`tloq, voha botqoq, voxa bo`z kabi tuproqlar kiradi.
- O`zbekistonning tekislikcho`l qismidagi tuproqlarning o`ziga xos tomonlari shundaki, chirindi miqdori kam bo`lishidan tashkari yuqori karbonatli, sho`rlashgan va ba`zi yyerlarida sho`rxoklar; mavjud. Jumhuriyat cho`l qismi tuprog`ining 40% sur-ko`ng`ir tusli tuproqqa, 36% qumlarga, 5,4% takirli tuproqqa, 3,18% qumli cho`l tuproqqa, 3,8% sho`rxokka, 0,5% taqirlarga to`g`ri keladi.

- Demak, O`zbekistonning cho`l qismida eng ko`p tarqalgan tuproq bu *sur qo`ng`ir tuproq* turidir. Bu tuproq turi respublika yer fondining 25—30% ni ishg`ol qilib, asosan bo`r, paleogen, neogen davrlarining qumtosh, gil, mergel, oxaktosh va qadimiy prolyuvial, ellyuvial yotqiziqlarda tashkil topgan. Sur-qo`ng`ir tuproqlar Ustyurt platosi, Qizilqumdagi qoldiq tog` etaklari va balandliklari, Qarshi, Malik cho`llaridagi qoldiq tog` etaklarida tarqalgan.
- Sur-qo`ng`ir tuproq tarkibida chirindi miqdori kam bo`lib, (ustki qatlamida gumusning miqdori 0,3—0,7% gacha boradi. Sur-qo`ng`ir tuproq tarkibida kalsiy karbonat ko`p, lekin u chuqurlashgan sari kamayib, aksincha, gips miqdori ortib boradi. Sur-qo`ng`ir tuproqning 40—60 sm chuqur qismidan boshlab butun tuproqning 60%, ba`zi joylarida esa 80% i gipsdan tashkil topadi. Gipsli (qatlamning qalinligi odatda 25— 80 sm. Ustyurt platosida esa hatto 2,0 m. ga yetadi.
- Sur-qo`ng`ir tuproq tarqalgan ba`zi joylarda (Ustyurt platooida, Qizilqumning qoldiq tog`lari etaklari) tuproq ustida tez eriydigan tuzlar uchraydi, binobarin bundal sharoitda sur-qo`ng`ir tuproq sho`rxok va sho`rtob tuproqqa ajraladi.

• ЧЎЛ ЗОНАСИНИНГ СУР ҚЎНҒИР ТУСЛИ ТУПРОҚЛАРИ.

- *Келиб чиқиши.* Бу чўл зонасининг автоморф тупроқлари бўлиб, узок йиллар давомида алоҳида типга ажратилмасдан, бўз тупроқлар билан бирга қараб келинди. Йирик тупроқшунос олимларимиздан С.С.Неуструев ва Н.А.Димо уни дастлаб структурали оч бўз тупроқ, А.Н.Розанов эса қир бўз тупроғи, Б.В.Горбунов ва бошқалар кам ривожланган – ёш бўз тупроқ деб, бўз тупроқларнинг типчаси сифатида номланиб келди. Кейинги йилларда И.П.Герасимов сур-қўнғир тусли тупроқларни алоҳида мустақил типчага ажратишни тавсия этади. Фақатгина Н.В.Кимберг, С.А.Шувалов, Е.В.Лобоваларнинг кўп йиллик тадқиқотлари Сур-қўнғир тусли тупроқларнинг генетик хусусиятларини ҳар томонлама ўрганишлари натижасида, бу тупроқни алоҳида типга ажратишга эришилди.

- *Классификацияси.* Сур-қўнғир тусли тупроқлар икки типчага: карбонатли типик сур-қўнғир тусли ва оз карбонатли сур-қўнғир тусли тупроқларга бўлинади.
- *Карбонатли типик сур-қўнғир тусли тупроқ* Турон пасттекислигининг ғарбий чўлларида ва Устюрт баланд текислигида кенг тарқалган. *Оз карбонатли сур-қўнғир тусли тупроқлар* эса қўшни Қозоғистон Республикасининг Бетлақдала баланд текислигининг шарқида ва Балхаш атрофида тарқалган. Сур-қўнғир тусли тупроқлар типи термик режимлари ва ривожланиш шароитига кўра ҳозирги вақтда 3 типчага бўлинади:
- Музлайдиган жуда илиқ, сур-қўнғир тусли чўл тупроқлари Ўзбекистоннинг марказий Устюрт, Қизилқум қисмида учрайди.
- Қисқа муддатли музлайдиган субтропик сур-қўнғир тусли чўл тупроқлари, Устюрт, Қизилқумнинг жанубий қисми ва Фарғона водийсининг тоғ олди текисликларида жойлашган.

- O`zbekiston hududining ko`pgina qismida *qum va qumli cho`l tuproqlari* joylashgan. Bunday joylar qatoriga Qizilqum, Amudaryo, Qashqadaryo va Zarafshon daryolarining qadimiy deltalari, Surxondaryoning quyi qismi (Xovdor, Bobotog` etaklari), qisman Markaziy Farg`ona kiradi.
- Respublikamizning cho`l, qismidagi qadimgi allyuvial tekisliklarida, Ustyurt platosining janubiy qismida, Amudaryo va Zarafshon daryolarining quyi qismidagi qadimiy deltalarida, Qarshi cho`lining janubi-g`arbiy qismlarida taqirlar va taqirli tuproqlar uchraydi. Taqir va taqirli tuproqlar egallagan maydon respublika yer fondining 4,0% ni ishg`ol qiladi.
- Taqirli tuproq turlari cho`l zonasidagi qadimiy quruq deltalarda, daryo qayirlarida va marta qumlar orasida, tog` oldi tekisliklarida uchraydi. Taqirli tuproq turi tarkibida chirindi, kam (0,5—0,8%), chirindi saqlovchi qatlam yupqa (10—12 sm) va karbonatlidir.
- Taqirlar asosan allyuvial va prolyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan, tarkibida gilli jinslar ko`p bo`lgan joylarda uchraydi. Taqirlar yuzasi qattiq bo`lib, yorilib ketgan. Chunki taqirlar yuzasi bahorda yog`in suvlari bilan to`lib, yozda ular bug`lanib ketib, qurib qotib, yorilib-yorilib ketadi va hatto ustida ot yursada izi tushmaydi, chirindi miqdori nihoyatda kam (0,4— 1,0%).



Қуриқ тақирли тупроқларни кўриниши




Суғорилган тақирли тупроқларни кўриниши

- Тақир тупроқлар шўрланиш, намланиш характериға ва қатқалоғининг ривожланиш даражасиға қараб икки типчаға: *типик тақирлар ва чўллашган тақирларға* бўлинади.
- Типик тақир тупроқлар: (сув ўтлари ўсадиган тақирлар) қуйидаги авлодларға: оддий тақир тупроқлар, шўрхоқли, шўртобсимон, шўртобсимон зич қуйма (хок), тақирлар юзасини босган ва эски партов тақирларға ажратилади. Оддий тақирлар 20-30 см чуқурликда 1 фоиздан кўп туз сақлайди, (шўрхоқсимон). Шўрхоқли тупроқларда туз бевосита қатқалоқ остида жойлашган бўлади. Шўртобсимон тақирларда туз анча чуқургача ювилган ва зич қатқалоқ ёки қатқалоқ остки қатлами бўлади. Тупроқ эритмаси юқори ишқорий характериға эға.
- Чўллашган (лишайникли) тақирлар даврий равишда (ҳар йили эмас) сув босиб турадиган ер юзасида ривожланади.


Қарши чўли тақирли тупроқларнинг агрохимёвий хоссалари

256 кесма Касби тумани, М.Улуғбек ф/х. қўриқ



Гумус Азот Фосфор Калий Карбонатлар CO2 Қуруқ қолдиқ Cl

265 кесма. М.Улуғбек ф/х, енгил соз, бугдой



Гумус Азот Фосфор Калий Карбонатлар CO2 Қуруқ қолдиқ Cl

- **Тақир ва тақирли тупроқлардан қишлоқ хўжалигида фойдаланиш.**

- Тақир ва тақирли тупроқлардан самарали фойдаланиш учун биринчи навбатда унумдорлигини ва мелиоратив ҳолатини яхшилашга бағишланган қуйидаги чора тадбирлар олиб боришни тавсия этади:
- Ерга ҳар гектарига 15-20 т органик ўғит солиш, кўп йиллик ўтлар экиш;
- Пахта, дон, беда алмашлаб экишни жорий қилиш;
- Минерал ўғитлардан азотли, фосфорли ўғитлардан кенг фойдаланиш;
- Ерларни чуқур ҳайдаш, суғоришдан кейин бўладиган қатқалоқни ер бети ёрилиб кетмасдан культивация ўтказиш ва бошқа чора-тадбирлар олиб бориш зарур;
- Шўрланган ерларни мелиоратив ҳолатини яхшилаш мақсадида коллектор-зовурларни ишлашини таъминлаш, шўр ювиш ва қиш мавсумида ерга яхоб суви бериш каби долзарб ишларни амалга ошириш ва бошқалар.

Тақирли тупроқларни унумдорлигини ошириш учун қўйидаги тадбирлар амалга ошириш керак.



• БЎЗ ТУПРОҚЛАР

- O`zbekistonning adir, qismida bo`z tuproq mintaqasi joylashgan. Bo`z tuproqli adir mintaqasi tog` etaklari bo`ylab 1200—1460 m. balandliklargacha ko`tariladi. Relefning balandlashishi natijasida yog`in miqdori ortadi, o`simliklar turi ko`payib, qalin o`sadi. Bular o`z navbatida tuproq paydo bo`lish jarayoniga, binobarin, tuproqdagi chirindi miqdoriga ta`sir etadi.
- Bo`z tuproq karbonatli bo`lib, karbonat miqdori uning quyi qismiga qarab ortib boradi. Agar bo`z tuproqning ustki qismida karbonat miqdori 10—15% bo`lsa, quyi qismida (100—140 sm chuqur qismida) 25% ga yetadi. Bo`z tuproq tarkibida chirindi miqdori 1—2% dan 4-5% gacha boradi. Bo`z tuproq tarqalgan maydon respublika yer fondining 26,51% ni tashkil qiladi.
- Bo`z tuproq o`ziniig morfologik va kimyoviy tarkibiga ko`ra pastdan yuqoriga qarab *och tusli, tipik va to`q tusli bo`z* tuproq turlariga bo`linadi. Joyning geomorfologik va gidrogeologik xususiyatlariga ko`ra bo`z tuproq mintaqasida yana *yarim gidromorfli o`tloq bo`z, bo`z o`tloq va yana gidromorfli o`tloq, botqoq o`tloq, botqoq tuproq turlari* xam uchraydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi bo'z yerlar maydoni (ming ga)

№	Viloyatlar nomi	Jami	shundan	
			sug'orila-digani	lalmisi
11	Qoraqalpog'iston Respublikasi	9,3	9,3	0
2	Andijon	3,5	0,7	2,8
3	Buxoro	6,9	6,9	0
4	Jizzax	8,3	0,5	7,8
5	Qashqadaryo	22,8	5,1	24,7
6	Navoiy	6,9	6,8	0,1
7	Namangan	2,8	2,8	0
8	Samarqand	6	0	6
	Surxondaryo	0,3	0	0,3
	Sirdaryo	11,1	11,1	0
	Toshkent	0,8	0,3	0,5
	Xorazm	4,9	4,9	0
	Jami:	83,6	48,4	35,2

БҰЗ ТУПРОҚЛАР

```
graph TD; A[БҰЗ ТУПРОҚЛАР] --- B[ОЧ ТУСЛИ БҰЗ]; A --- C[ТИПИК БҰЗ]; A --- D[ТҰҚ ТУСЛИ БҰЗ];
```

ОЧ ТУСЛИ БҰЗ

ТИПИК БҰЗ

ТҰҚ ТУСЛИ БҰЗ

ҲАР ХИЛ ОНА ЖИНСДА ШАКЛЛАНГАН ТУПРОҚЛАР ПРОФИЛИНИНГ КЎРИНИШИ



**Тўқ тусли бўз тупроқ, лёсс
ётқизикда шакллланган**



**Тўқ тусли бўз тупроқ, неоген
ётқизикда шакллланган**

Och tusli bo`z tuproqlar

- Och tusli bo`z tuproq mutloq balandligi 250—400 m. bo`lgan tog` oldi tekisliklarida, daryolarni baland (eski) qayirlarida, past tog` etaklarida (respublika janubida) keng tarqalgan. Bu joylarda tuproq hosil qiluvchi jins lyoss va keltirma konuslarning allyuvial-prolyuvial yotqiziqlari hisobdanadi. Och bo`z tuproq tipik bo`z tuproqdan chimli ustki qatlami och bo`z tusliligi, chirindi miqdorining kamligi, chirindi saklovchi katlamining yupqaligi, karbonatli qatlam yuzasiga yaqinligi bilan ajralib turadi.
- Och tusli bo`z tuprokda chirindi miqdori ustki knsmida (13—15 sm chuqurlikda) 1,5—1,7%, so`ngra chirindi miqdori kamayib 100 sm chuqurlikda 0,1—0,35% ga tushib qoladi. Och tusli bo`z tuproq orasida turli miqdorda sho`rlashgan tuproqlar xam uchraydi. Och bo`z tuproqning ko`p qismi sug`oriladigan, oz qismi lalmikor yyerlarga to`g`ri keladi. Och tusli bo`z tuproq tarqalgan maydon jumhuriyat yyer fondining 4,48 foizini ishg`ol qiladi.
- Tipik bo`z tuproq jumhuriyatimiznint 300—400 m dan 800 m balandda bo`lgan tog` oldi tekisliklarida, qirlar va past torlarida, daryolarning baland qiyirlarida keng tarkalgan. Bu tuproq turini hosil qiluvchi jins asosan lyoss va lyossimon yotqiziqlar hisoblanadi. Tipik bo`z tuproq och bo`z tuprokdan tarkybida chirindi miqdorining ko`pligi, chirindi saqlovchi qatlam kalinaligi va biroz to`q tusliligi bilan ajralib turadi.

Tipik bo`z tuproqlar

- Tipik bo`z tuproqning ustki qatlamida chirindi miqdori 1,5 dan 2,5% gacha, ayrim (har xil o`tlar qalin o`sadigan) joylarda 2,88% gacha yyetadi. Buning ustiga gumus saklovchi qatlam qalin bo`lib, 60—70 sm. gacha, ayrim hollarda 90—100 sm. chuqur qismida ham uchraydi.
- Tipik bo`z tuproq och bo`z tuproqqa nisbatan karbonatli bo`lib, tuzli va gipsli qatlam ancha chuqurda joylashgan. Tipik bo`z tuproqning ko`p qismi sug`orilib dehqonchidik kilinadi, bir qismidan esa lalmikor ekinlar ekib foydalaniladi.
- Tipik bo`z tuproq tarqalgaya hududlariga ko`ra och bo`z tuproq maydonidan kattaroq bo`lib, O`zbekiston yyer fondining 6,77 foizini ishg`ol kiladi. To`q tusli bo`z tuproq O`zbekiston hududining 600—800 m. dan 1400—1600 m balandda joylashgan tor oldi qiyaliklarini, past tog`larni ishg`ol qiladi. To`q tusli bo`z tuproq asosai lyossimon qumoq yotqiziqlar tarqalgan joylarda vujudga kelgan bo`lib, tipik bo`z tuproqdan chirindisining ko`pligi, chirindi saqlovchi qatlamning qalinligi, binobarin, ustki qismi to`q tusdaligi bilan ajralib turadi.

To`q tusli bo`z tuproqlar

- To`q tusli bo`z tuproqning ustki qatlamida chirindi miqdori 2,3—3% ga, ayrim joylarda esa hatto 4,5% gacha boradi. Chirindi saqlovchi qatlam esa 120—130 sm. chuqurlikkacha joylashgan. Bu tuprok och va tipik bo`z tuproqqa nisbatan ishqori yaxshi yuvilgan bo`lib, sho`rlangan tuproq deyarli uchramaydi, gipsli qatlam esa ancha chuqurda (2—2,5 m. da) joylashgan.
- To`q tusli bo`z tuproq ancha balandda joylashganligi tufayli undan sug`orishda kam foydalaniladi, aksincha asosan bahorikor ekinlar ekishda foydalaniladi.
- To`q tusli bo`z tuproq O`zbekistonda och va tipik bo`z tuprokqa nisbatan kamroq maydonni tashkil qilib, respublika yer fondining 2,33% ni egallaydi, xolos.
- O`zbekiston hududidagi Farg`oya, Zarafshon, Surxondaryo(Chirchiq, Ohangaron vodiylarida, Qarshi va Mirzacho`l-Jizzax cho`llarida sug`oriladigan bo`z tuproq keng tarqalgan. Bu tuproq uzoq yillardan beri sug`orilib, ishlov berilib, har xil o`ritlar solinib uning tabiiy holatini, ya`ni fizik va kimyoviy holatini o`zgartirib yuborilgan, ustki qismida 1—1,5 m. qalinlikda deyarli bir xil madaniy (agroiirrigao`iya) qatlam vujudga keltirilgan. Sug`oriladigan bo`z tuproqda chirindi miqdori yuqori qatlamida 1—2% ga yyetadi.
- Sug`oriladigan bo`z tuproq tarqalgan mintaqaning quyi qismida grunt suvining siljishi qiyin bo`lgan joylarda agrotexnika qoidalariga to`la rioya qilmaslik tufayli tuproqning qayta sho`rlashish jarayoni mavjud. Bunday joylarda tuproq melioratsiuga muhtojdir. Sug`oriladigan bo`z tuproqlar ko`proq xlor sulfat tuzlari bilan sho`rlashgan
- Bo`z tuproqli adir mintaqasida yana *o`tloqbo`z*, *botqoq o`tloq bo`z*, *botqoq bo`z* kabi gidromorf tuproq turlari ham uchraydi. Bunday bo`z tuproq turlari Zarafshon, Sirdaryo, Chirchiq, Ohangaron, Surxondaryo, Qashqadaryo kabi daryolarning eski yuqori qayirlarida, deltalarida, tog` etaklaridagi tekisliklarning quyi qismlidra joylashgan.

БЎЗ ТУПРОҚЛИ ЗОНАСИНИНГ ГИДРОМОРФ ТУПРОҚЛАРИ ТАСНИФИ



Гидроморф тупроқларнинг ҳосил бўлиши

Сизот сувлари яқин (0,5-3,0м) бўлган шароитда, доимий капилляр намлик таъсирида ҳосил бўладиган тупроқлар киради. Гидроморф тупроқларнинг хоссалари сизот сувларнинг сатхи, минераллашганлик даражаси ва шунингдек даврий равишда бўлиб турадиган ташқи сувлар режимига боғлиқ. Гидроморф тупроқлар майдони Ўзбекистонда 40% ташкил этади.

- Гидроморф тупроқлар чўл ва бўз тупроқлар минтақасидаги дарёларнинг қуйи террасаларида, кўл қирғоқларида, дарёларнинг эски ўзанлари ҳамда кўлларнинг қадимги ўринларида, шунингдек тоғ ости қияликлари ва ҳавзалар қуйи қисмларида учрайди.

ГИДРОМОРФ ТУПРОҚЛАР ТАСНИФИ



Гидроморф тупроқлар кимёвий таркиби (%хисобида)

Тупроқ ва жойнинг номи	Чуқурлиги	Чиринди	Карбонат	Ялпи фосфор	Ялпи калий
Қайир аллювиал Амударё дельтасининг ўнг соҳили	0-9	0,84	9,06	0,133	2,36
	9-30	0,54	9,15	0,134	2,15
	30-50	0,48	9,76	0,030	2,07
Аллювиал чимли- ўтлоқи тупроқ. Амударё этагининг ўнг соҳили	0-13	1,03	9,50	0,132	2,15
	13-28	0,85	9,41	0,133	1,70
	49-68	0,49	9,91	0,127	0,62
Суғориладиган ўтлоқи тупроқ. Хоразм вилояти	0-20	1,24	8,9	0,123	2,45
	20-45	0,78	9,9	0,111	1,80
	45-69	0,33	10,5	0,098	0,92
Аллювиал ботқоқ тупроқ. Хоразм вилояти.	0-14	1,10	8,05	0,114	2,36
	14-28	0,71	9,46	0,106	1,84
	28-75	0,69	8,26	0,072	0,86








Классификацияси. Ўзбекистоннинг гидроморф тупроқлари, аввало минтақалар бўйича жойлашишига қараб: *чўл минтақасининг гидроморф тупроқларига ва бўз тупроқлар поясининг гидроморф тупроқларига ажралади.*

Намланиш шароитига кўра ҳар иккала минтақадаги тупроқлар аллювиал тупроқларга ва саз режимдаги тупроқларга бўлинади.

Юқорида айтиб ўтилган ҳар бир гуруҳ доирасидаги ўтлоқи, ботқоқ ва шўрхок тупроқлар типлари ва ботқоқ-ўтлоқи, ўтлоқи, шўрхок ҳамда ботқоқ-шўрхок тупроқлар типчасига ажратилади

Jigarrang tuproqlar

- Tog`larning nisbatan qurg`aqchilroq qismlarida jigar rang tuproq turi, aksincha, namroq va balandroq, keng bargli o`rmonlar serob bo`lgan qismida esa qoramtir-qo`ng`ir tog`-o`rmon tuproq turi tarqalgan.
- Jigar rang tuproq turi gumus saqlovchi qatlamning qalinligi (70—100 sm), donadorligi, gumus miqdorining (yuqori qatlamida) ko`pligi (4—5% dan ayrim hollarda — archazor tagida 11% gacha boradi) tufayli rangini qo`ng`ir jigarrang va to`q qo`ng`ir tusdaligi bilan bo`z tuproqdan ajralib turadi.
- Jigar rang tuproq turi tarqalgan mintaqalarda yog`in miqdorining nisbatan ko`shgagi (yiliga 500—800 mm) tufayli tuproqning yuqori qatlamidagi suvda tez eriydigan tuzlar yuvilib pastki qismiga tushadi, binobarin, bu tuproq turining yukori qatlamida qarbovatlar juda kam, aksincha, ostki qatlamida to`planib, ko`payadi. Bunday jarayoniyar o`z navbatida jigar rang tuproq turida sho`rlashish hodisasiga yo`l qo`ymaydi.
- Jigarrang tuproq ba`zi yonbag`ri tuproq, yuzasi nisbatan parchalangan, o`rtacha balandlikka ega bo`lgan tog`larda kishilariing noto`g`ri xo`jalik yuritishi (o`rmonlarni noto`g`ri kesishi, bir yerda surunkasiga mol boqishi, yerlarni noto`g`ri haydashi va boshk.) natijasida eroziyaga uchragan. Jigar rang tuproqlarni eroziyadan saqlash uchun zudlik bilan quyidagi choralarni amalga oshirish kerak: yonbag`ri tik bo`lgan joylarni haydab ekin ekmaslik yoki ko`p yillik yyem-xashak ekish; o`rmonzorlar tashkil etish; mol boqishni tartibga solish va hokazo.



ТОҒ ЖИГАРРАНҒ
ТУПРОҚЛАР

ЖИГАРРАНҒИ
КАРБОНАТЛИ

ЖИГАРРАНҒ
ТИПИК

ЖИГАРРАНҒ
ИШҚОРСИЗЛАНҒАН

ЖИГАРРАНГ ТУПРОҚЛАР ПРОФИЛИНИНГ КЎРИНИШИ



Тоғ жигарранг типик тупроқ



Тоғ жигарранг карбонатли тупроқ

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar chegarasidagi pichanzor va yaylovlarning tabiiy mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi (ming ga)

Nomlanishi	Umumiy maydoni	shundan sug'oriladigani	shu jumladan		
			Cho'l	Adir	Tog'
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4709,6	27,1	4682,5	0	27,1
Andijon	21,2	0,8	3,0	18,2	0
Buxoro	2674,2	0	63,5	2510,7	100
Jizzax	746	0	195,9	444,6	105,5
Qashqadaryo	1460,1	0,1	639,8	476,6	343,7
Navoiy	9136,2	0	8566,6	545,8	23,8
Namangan	153	0	1,5	116,6	34,9
Samarqand	795,6	0	19,1	651,2	125,3
Surxondaryo	861,7	0	83,1	579,8	198,8
Sirdaryo	23,6	0	0	23,6	0
Toshkent	429,9	1,5	0	325,9	104,0
Farg'ona	24	4,5	3,9	20,1	0
Xorazm	172,2	9,4	172,2	0	0
Jami:	21207,3	43,4	14431,1	5713,1	1063,1

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi lalmikor haydalma yer maydonlari (ming ga)

Viloyatlar	Yer maydoni
Jizzax	218,3
Qashqadaryo	255,6
Navoiy	19,9
Samarqand	179,4
Surxondaryo	37,8
Toshkent	35,0
Jami:	746